



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



**TILAK VA TABRIK NUTQIY AKTIDA EKSTRALINGVISTIK
VOSITALARNING O‘RNI**
**THE ROLE OF EXTRALINGUISTIC MEANS IN THE SPEECH
ACT OF WISHES AND GREETINGS**

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/AWMJ8315](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/AWMJ8315)

Muratova Nafisa Baxtiyarovna
doktarant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
oneidnafisa@gmail.com

Annotatsiya. So‘zlovchi muayyan axborotni tinglovchiga yetkazish uchun, albatta, vosita – tegishli kanalni tanlaydi. Tabiiyki, asosiy kanal tilning o‘zidir. Ammo axborotni to‘la yetkazishda umumiy vaziyat va maqsadga muvofiq boshqa kanallar ham ishga tushiriladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek bu o‘rinda paralingvistik va ekstralingvistik vositalar nazarda tutiladi. muloqot ko‘p hollarda verbal, ya’ni so‘z va noverbal, so‘zsiz, nolisoniy vositalar imo-ishoraga, har xil belgi, ramz simvollar orqali axborot berish va bir birining ta’siriga ko‘ra verbal yoki noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi. Nutqiy muloqot jarayoni nutqiy aktlardan tashkil topadi. Nutqiy muloqot deganda muloqot jarayonida lisoniy va nolisoniy vositalarning birgalikda, hamkorlikda ishlashi tushuniladi. Har qanday nutqiy akt paralingvistik va ekstralingvistik vositalar yordamida yuzaga keladi. Quyida tabrik va tilak nutqiy aktlarining ifadalanishida ekstralingvistik vositalar ta’siri va ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: nutqiy akt, kommunikatsiya, paralingvistik vositalar, ekstralingvistik vositalar, verbal vositalar, noverbal vositalar, tilak nutqiy akti, tabrik nutqiy akti.

Annotatsion. The speaker, of course, chooses a means - an appropriate channel - to convey certain information to the listener. Naturally, the main channel is the language itself. However, in order to fully convey information, other channels are also used, depending on the general situation and purpose. As we noted above, this includes paralinguistic and extralinguistic means. Communication in most cases is classified as verbal or nonverbal communication, depending on the use of verbal and nonverbal, non-verbal, non-linguistic means of conveying information through gestures, various signs, symbols, and the influence of each other. The process of speech communication consists of speech acts. Speech communication means the joint, cooperative work of linguistic and non-linguistic means in the process of communication. Any speech act occurs with the help of paralinguistic and extralinguistic means. Below we will consider the



influence and importance of extralinguistic means in the expression of speech acts of greetings and wishes.

Keywords: *speech act, communication, paralinguistic means, extralinguistic means, verbal means, nonverbal means, speech act of wish, speech act of greeting.*

Ma'lumki, ekstralingvistik omillar nutq bilan inson ongidagi obrazlar orqali bog'lanadi. Shuningdek, nutqiy kommunikatsiyaning ichki va tashqi tomoni mavjud; ichki tomoni nutq strukturasi, tashqi tomoni esa, nutq situatsiyasiga oiddir.

Til informatsiyasining to'la manzarasini namoyon qilish uchun esa nutqning barcha tomonlarini yaxlit holda tekshirish zarur [Нурмонов, 1979: 31], chunki nutq shakl va ma'no birligidan iborat.

Tilning tafakkur bilan bog'liqligi gap (jumla) tuzish jarayoni va gap mazmunini idrok etishda yaqqol ko'rinadi. Bu jihatdan grammatik birliklardagi shakl va mazmun dialektikasini ochish mumkindir [Махмудов, 1990: 23].

Ko'rinib turibdiki, kommunikatsiya jarayonida shakl va mazmun dialektikasini ochishda ham ekstralingvistik omillar alohida o'rin tutadi. –O'g'il muborak bo'lsin, bolam! –dedi u ovozi titrab. –Hozirgina ko'zi yoridi. O'n oltinchi palatada yotibdi. ("Bahor qaytmaydi "O'tkir Hoshimov, 96-b.).

Keltirilgan matndan ham bilish mumkinki, diskurs jarayonida so'zlovchining ruhiy holat yaqqol ko'rinib turibdi. Kuchli emotsiyaga berilgan vaqtda ovozni pastlash, balandlatish holati tabiiy ro'y beradi. Bundan tashqari uning xatti-harakatlaridan ham sezish mumkin.

Yuqorida berilayotgan nutqiy axborotdagi barcha informatsiyaning juda oz qismini sof lingvistik elementlar tashkil etadi. Informatsiyaning boshqa tomonlari esa ekstralingvistik omillar asosida to'ldiriladi. Ekstralingvistik omillarga so'zlovchining holati, ijtimoiy ahvoli, nutqiy vaziyat, ovozning fizik holati va shu kabilar kiradi.

- Anvar Muqaddamning chehrasida bir lahza g'am soyasiga o'xshash allaqanday hayrat paydo bo'la boshlaganini payqadi. Ammo shu ondayoq u yana jilmaydi:

-Tabriklayman... ("Bahor qaytmaydi "O'tkir Hoshimov, 77-b.).

Yuqorida so'zlovchining holati u bilan muloqotga kiruvchi shaxs bilan qay darajada yaqinligi yoki unga bo'lgan munosabatini o'z nutqida, ya'ni istar-istamas past ovozda gapirishi va kuchli ruhiy holatda bo'lib hayrat bilan gapirishidan ham ko'rishimiz mumkin.

Ekstralingvistik omillar ikki xil bo'ladi: obyektiv ekstralingvistik omillar, subyektiv ekstralingvistik omillar. Obyektiv ekstralingvistik omillarga so'zlovchidan tashqari bo'lgan voqelik: borliq, joy, vaziyat, nutq ishtirokchilari; subyektiv ekstralingvistik omillarga so'zlovchining ruhiy holati, xarakteri, millati, jinsi, ijtimoiy ahvoli, kasbi, maqsadi, nutqiy malakasi kabilar kiradi [Хожалилев, 2001: 37-40].

Sovrin qayda, o'g'lim, sovrin? Yo sovrin ololmay, ikki qo'llaringdi burunlaringga tiqib qaytdilaringma; shovvozlari?

- Sovrin olmasa elga qaytarmidi o'g'lingiz, o'ta?



- *Ke, bir quchoqlashaylik, o'g'lim! Ota-bola quloch ochib ko'rishi.* (“Adolat manzili”, 44 b.).

Yuqoridagi misolda muloqotchilarning joyga, ma'lum vaziyatda, nutq ishtirokchilariga, ruhiy holatiga, xarakteri, jinsi ijtimoiy ahvoli, kasbi, maqsadi, nutqiy malakasi bilan uzviy bog'liq nutqiy akt yuzaga keldi. Ota va o'g'il munosabatida ularning ijtimoiy o'rni, jinsi aniq; shu vaziyatdagi ruhiy holati va muloqot yuz bergan joy ham aniq. Otaning “*Ke, bir quchoqlashaylik, o'g'lim!*” nutqi shunchaki o'g'li bilan salomalshish emas, balki, bu o'rinda uni sovrin olgani bilan tabriklash maqsadida quchoqladi. Bu nutqiy jarayonda tabrik nutqiy akti borligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni “*Ke, bir quchoqlashaylik, o'g'lim!*” jumlasida. Bu yerda paralingvistik vosita ham qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Chunki, ota nutqida aynan tabrik so'zi aks etmagan.

Agar muloqotchilar birgina boshqa joyda masalan, rasmiy joydami nutqiy faoliyatga kirishganida jarayon boshqacharoq bo'lar edi. Dalavoy oyimga qaramadi, dadamga tikilgancha, jiddiy tortdi.

-Endi aka, biz bir joyning odamimiz, ot tepkisi otga o'tmaydi.

-Rahmat ukam, siz bizni siyilasangiz sizni xudo silasin. (“Dunyoning ishlari”, O'. Hoshimov, 108-b.) Bu misolda ham ruhiy holatning nutqqa ta'siri yaqqol namoyon bo'lgan. Kuchli hayajonlanish, kutilmagan voqeaning yuz berishi, kuchli minnaddorlik hissi namoyon bo'lish bilan birga, inson nutqida tashqi ko'rinishida harakatlarida ham minnaddorlik aks etib o'z- o'zidan suhbatdoshiga ezgu tilaklar bildiradi.

Ekstralingvistik omillarning nutqqa ta'siri xususida mutaxassislar o'rtasida turli qarashlar mavjud. Mazkur ishda subyekt ruhiy holatining nutqning shakliy-mazmuniy tuzilishiga ta'siri haqida fikr yuritimiz. Chunki “tilshunoslikning yaxlit maqsadi til, tashqi olam va til egasi o'rtasidagi munosabatning mohiyatini tadqiq etishga borib taqalmog'i lozim” [Махмудов, 1990: 25].

Bu uch jihatning bog'liqligi, o'zaro munosabati, ayniqsa, subyekt ruhiy holati bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Islom aka og'ir-vazmin odam bo'lsa ham, xursandligini yashirolmadi. Ma'murjonni quchoqlab bag'riga bosib:

-“Barakalla o'g'lim, bizning baxtimizga sog' bo'lgin;o'qib katta olim bo'lgin”,- deb Islom aka duoga qo'l cho'zdi.

Ra'noxon opa bir haftagacha uyiga kim kirsam, yorliqni ko'rsatib maqtandi.

(So'nggi hayqiriq, 97-bet)

Yuqorida aytganimizdek muloqot egalarining ruhiy holati nutqida aks etadi. Otaning o'ziga bo'lgan ishonchi va faxr tuyg'usi, farzandidan mamnunlik holati ayon bo'lib turibdi.

Bundan tashqari ovozning pasayishi yoki kuchayishi, pauza bilan yoki surunkali yo'g'on ingichka ovozda gapirish, so'zlash jarayonidagi ohang xususiyatlari aloqa – aralashuvda qo'shimcha omillar sanaladi.

Ey biradorlar! Ilonga o'xshab po'st tashlab, qurtlar singari sudralib yuringlar. Qurolli dumida bo'lgan chayondek hushyor bo'linglar, chunki shayton kelib



odamni orqadan alday olmasa hech bir kimsa alday olmaydi. (O'. Hoshimov Solomon_ va Ibsol, Tayr qissasi, 2-b.)

Yuqorida nutq to'lig'icha baland ovozda bo'lib, bu oddiy axborotdan butunlay farq qiladi. Bu o'rinda nafaqat tinglovchiga tilak, balki xushyorlikka davat etish nutqi aks etgan.

Nimadandir qattiq qayg'urib, hayajonlanganda so'zlovchi baland ovozda so'zini topolmay kalovlanib qoladi. O'z navbatida bu tinglovchiga ham ta'sir qilmay qolmaydi.

Nutq til majmuiga oid bo'lgan minimal nominativ tashkil etuvchi birliklarning xususiy funksional reallashuvidir [Неъматов, 1993: 20].

Demak, nutq tilga oid birliklarning xususiy funksional reallashuvidan iborat ekan, uning uch jihatiga e'tibor berish zarur:

1. Nutq tilga oid birliklarning faoliyati, yashashidir.
2. Nutqda xususiylilik mavjud.
3. Til birliklari nutqda ma'lum vazifa bajaradi [Хожалилев, 2001: 38].

So'zlovchi va tinglovchining ruhiy holati nutqning har uch jihatini va okkazional holatni ham o'z ta'sir doirasiga oladi. Insonning barcha faoliyati kabi nutqiy faoliyati ham ma'lum ehtiyoj asosida yuzaga keladi. Ana shu jarayonning yuzaga kelishida so'zlovchi ruhiy holati alohida o'rin tutadi. Nutq til birliklarining reallashuvi, faoliyati ekan ular ruhiy oqimni shakllantiradi. Bu birikish jarayonida til birliklari ijtimoiylikdan ko'ra ko'proq individuallik kasb etadi.

- Do'stim Alibek mashinamizga jimgina qaradi-da, bosh tebratib qo'ydi, so'ngra Asalga yaqin kelib, qo'l berib salomlashdi va uni tabrikladi.
- Sizlarni ko'rganimdan xursandman, baxtli-saodatli bo'linglar!
- Rahmat,,minnatdorman. (Sarviquomat dilbarim 19- b.)

Muloqot jarayonida ba'zida bir tomonning savoliga ikkinchi tomon ham savol bilan javob beradi. Bunda so'zlovchi kuchli hayajon, asabiylashish, kutilmagan zarbaga uchrashi natijasida o'zi qiziqqan, ayni vaqtda o'zini qiziqtirgan narsalarni so'rashi mumkin, biroq berilgan savollarga parvo qilmaydi yoki javobini aytish ham unga yomon ta'sir qilib, javob berishni xohlamaydi. Ma'lum vaqtdan so'ng bir jumla bilan qanday muammo borligini tinglovchiga bayon qilish bilan munosabatini ham bildiradi.

Ta'kidlaganimizdek, qanday nutq tuzish so'zlovchi ruhiy holati bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Chunki inson nutqiy jarayonida alohida olingan fonema, morfema, leksema, sintaksemalarni tanlash imkoniyatiga ega emas, nutqiy jarayon avtomatik tarzda amalga oshadi. Bu jarayonga nolisoniy belgilar, jumladan subyekt ruhiy holati ta'sir etadi. Ruhiy holat ta'sirida til birliklari tanlanadi, nutq talaffuzi psixofiziologik jarayon sifatida avtomatik boshqariladi. Inson ruhiy holatining o'zgarishi ovozingizning fizik holatiga: baland-pastligiga, tovush tempiga, toniga ta'sir etadi.

Rahimjon! Uka! Tabriklayman! Kandidatlik diplomingiz keldi! Rahim Saidov hang-mang bo'lib qoldi. Odamlar yillab kutadi diplomni, uniki esa himoyadan so'ng uch oy o'tgach keldi. Juda tez!



Darrov-a? –hayron bo‘lib so‘radi oxiri.

(Institut direktori Sulaymon akaning Rahim Saidovga bildirgan tabrigi) (6-bet)

Ruhiy holatning o‘zgarishi ovozning baland pastligiga, tovush tempiga ta’sir etishi nutqning ifoda jihatini, tashqi jihatini intonatsiyani yuzaga keltiradi. Intonatsiyani faqat ovozning baland-pastligi bilan bog‘liq bo‘lmay, ayni vaqtda tag ma’noga ta’sir etadi, mantiqiy urg‘uni boshqaradi. Ismoil Hojalilev fikricha intonatsiya, hatto so‘ssiz mazmun ifodalaydi.

Nonga tegib bo‘lmaydi, ko‘paygur, -dedi boshimni silab, -Qorningni qorachig‘idan aylanay tegib bo‘lmaydi. Bu non Oltmishvoy akangniki. Ko‘rdingmi bir chetini tishlab ketgan.

Qarasam, nonda chindan ham Oltmishvoy akaning tishlagan izi ko‘rinib turibdi. (O‘.Hoshimov, “Dunyoning ishlari”, 60-b. “Ermon buvaning tilagi” hikoya.) Bu matnda Ermon buvaning nasihati davomida tilak aks etgan. So‘zlovchi emotsiyaga beriladi.

Tagma’noning qo‘llanishi nutqiy muloqot jarayonini yanada jonlantiradi. Tagma’no yoki boshqa nolisoniy birliklar ham nutq sharoitidan kelib chiqib qo‘llaniladi.

Do‘stlar, eson –omon yurtga qaytaylik, bola-chaqa, yor-og‘aynilarning diydorini ko‘raylik, deb yaxshi tilak qilsanglarchi. Tilakli yigit-qanotli yigit, -dedi Asqar polvon salmoqlanib. (Oybek, “Quyosh qoraymas” 7- bet) So‘zlovchi bu o‘rinda tagma’no qo‘llagan u tushkunlikka tushgan va bu kayfiyatni atrofdagi yigitlarga ham o‘tkazayotgan va taqdirga tan bergan yigitga bunday mazmunda gapirma, uning o‘rniga yaxshi niyat qil, qo‘lingdan kelsa, boshqalarga ko‘tarinki ruh ber, bo‘lmasa, niyatni to‘g‘ri qiling degan mazmun yotadi. Shu o‘rinda “Tilakli yigit-qanotli yigit” deb nolib yuruvchi insonlarga nisbatan aytilgan.

Diskurslar jarayonida qo‘llaniladigan lisoniy vositalar majmuasidagi paradigmalarda, imo-ishoralarning ijtimoiy-axloqiy qiymatlari, nutq holatining ruhiy tomonlari xilma-xildir. Nutq jarayonida so‘zlashuvchining ruhiy holati intonatsiya ya’ni talaffuz jarayonida nutq tezligidan ham bilinib turadi. O‘z navbatida intonatsiya og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, alohida bir sistema tashkil qiladi.

Kommunikatsiya jarayonida nutq tezligi uning talaffuzi jarayonida gap tarkibidagi tovushlarga farqlangan vaqt bilan belgilanadi. Gapning har bir bo‘lagi, tezligi turli kommunikativ turlarida har xil bo‘ladi. Masalan, darak gap boshida berilgan ega gap tezligiga ko‘ra sekinroq boshlanib, kesim tarkibida maksimum darajaga yetadi.

Yo‘lda ehtiyot bo‘ling, xushmuomala bo‘ling, haydash paytida ichmang va men ham benzin narxi unchalik baland bo‘lmasligini xohlardim. (Keksa ayol yo‘lovchining haydovchisiga).

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki kommunikatsiya jarayonida kommunikantlar hayajonli nutqi ham o‘ziga xosdir.

‘ Aloqa – aralashuvning amalga oshishi va kommunikantlarning (aloqa – aralashuv ishtirokchilarining) o‘zaro munosabatini shakllantirishda matn



ahamiyatli bo'lib, u kommunikatsiyaning asosiy birligidir. Shunga ko'ra har bir lisoniy birlik nutqiy jarayonda matn nuqtai nazaridan o'rganilmoqda.

Diskurs jarayonida kommunikatsiya mazmuni va bu mazmuni uzatish kanallariga alohida e'tibor beriladi. Odatda, kommunikativ vaziyatning uch asosiy unsuri mavjud bo'ladi, ya'ni so'zlovchi, tinglovchi va mavzu yoki axborot [Maхмудов, 2007: 13].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, so'zlovchi ham, tinglovchi ham o'z nutqini va tinglash jarayonini ekstralingvistik vositalar so'zlovchi jinsi, Yoshi, egallagan mavqei, nutqiy vaziyat, sharoit bilan birga olib boradi. Bularning barchasi ekstralingvistik vositalardir. Tabiiyki har bir millat kommunikantlari uchun o'ziga xos ekstralingvistik vositalar mavjuddir. Bu vositalar esa, o'z navbatida tom ma'noda yalong'och nutqni kiyintiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E., Tursunpo 'latov M. O'zbek nutqi asoslari. -Toshkent, 1992. 88- b.
 2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Тошкент, 2008. 285-б.
 3. Хауруллаев Х.Тil birliklarining nutqiy faollashuvi va pog 'onali munosabat. // O 'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 2009,6-son. 81-83-b.
 4. Абдусаидов А. Мулоқот маданиятининг асосий сифатлари, Ўзбекистон матбуоти. -Тошкент. 2011, 4-сон. 37-39 б.
 5. Акбарова З. Мурожаат шаклининг тасниф асослари. Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 2006, 3-сон. 74-76 б.
 6. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ оdatининг мулоқот шакллари. Н.Д.А. - Самарқанд, 1993. 27-б.
 7. Нурмонов А. Ўзбек тилида паралингвистик воситаларнинг ўрни. - Андижон, 1980. 40-42-б.
 8. Нурмонов А. Тасдиқ ва инкорнинг паралингвистик воситалар ёрдамида ифодаланиши. //Ўзбек тили ва адабиёти.Тошкент, 1979, 1-сон. 31 -б.
 9. Пардаев З. Маслаҳат нутқий актида баҳо. // Ўзбек тили ва адабиёти .- Тошкент,2-сон. 2010. 72-76-б.
 10. Махмудов Н. Ўзбек тили синтаксисининг долзарб масалалари.//Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1990, 2-сон. 23- б.
- https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Iy7hDzQAAAAJ&citation_for_view=Iy7hDzQAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
- https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aiGGU2YAAAAJ&citation_for_view=aiGGU2YAAAAJ:YsMSGGLbcyi4C
- https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=gHnKX3EAAAAJ&citation_for_view=gHnKX3EAAAAJ:kNdYIx-mwKoC
- https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=oSSeGakAAAAJ&citation_for_view=oSSeGakAAAAJ:u5HHmVD_uO8C
- https://www.researchgate.net/publication/371445473_O'zbek_tili_va_adabiyoti_jurnali.



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafro 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774